

OILAVIY MUNOSABATLARDA EVFEMIZMLARNING GENDER XUSUSIYATLARI

Ruziyeva Nafisa Zarifovna

Buxoro davlat universiteti Ingliz
tilshunosligi kafedrasida Phd o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada erkak va ayol nutq xatti-harakatlarining o‘ziga xos xususiyatlari, ularning jamiyatdagi an’anaviy rollari bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi. Shuningdek, nutqdagi gender farqlari nafaqat biologik jins, balki ijtimoiy, psixologik va kommunikativ omillar — yosh, kasb, muhit, suhbat vaziyati hamda suhbatdoshlar o‘rtasidagi munosabatlar bilan ham belgilanadi. Tadqiqotda axloqiy jihatdan noqulay yoki qo‘pol tushunchalarni yumshatib ifodalashda qo‘llaniladigan frazeologik evfemizmlar alohida o‘rganilgan. Ingliz va o‘zbek tillarida turmush o‘rtoqqa nisbatan ishlatiladigan evfemik birliklar qiyosiy tahlil qilinib, ularning semantik, pragmatik va madaniy xususiyatlari ochib berilgan.


Kalit so‘zlar: gender lingvistikasi, nutq xatti-harakati, evfemizm, frazeologik birliklar, qiyosiy tahlil, kommunikativ omillar, pragmatika, semantika, ijtimoiy rol.

Erkak va ayolning nutq xatti-harakatlaridagi o‘ziga xos xususiyatidan biri – ularning jamiyatdagi an’anaviy roliga (ayol – ona, tarbiyachi, uy bekasi, ota – oila boshlig‘i, boquvchi) bog‘liqligini anglatadi, shuningdek, insonning kuchli yoki zaif jinsga bog‘liqligini bildiradi. Shu bilan birga, erkak va ayol nutqidagi o‘xshash va farqli jihatlar nafaqat ularning jinsi, balki murakkab sabablar, ya’ni suhbat uslubi, vaziyat, atrof-muhit, yosh, kasb, ma’lumot, psixologik xususiyatlar, suhbatdoshlar o‘rtasidagi munosabat kabilarga bog‘liq bo‘ladi. Axloqiy jihatdan qo‘llanishi qo‘pol, noqulay, uyatli sanalgan tushunchalarni muloyim hamda yumshoq tarzda ko‘rinishlari frazeologik evfemizmlar yordamida ifodalanadi.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi turmush o‘rtoqqa nisbatan qo‘llaniluvchi evfemik birliklarda uchratish mumkin. Masalan, *husband – better half, significant other, lord and master; wife – partner, mate, spouse* kabi evfemizmlarda ingliz millatining turmush o‘rtog‘iga bo‘lgan munosabatni ko‘rsatadi. “*Better half*” evfemizmining Britannika lug‘atida (Britannica Dictionary) “*someone’s wife or husband*”⁷⁶ kabi izoh keltirilgan. Ammo iboraning kelib chiqish tarixiga nazar tashlansa, dastlab bu birlik yaqin insonlarga (do‘st, o‘rtoq, qarindosh) nisbatan qo‘llanilgan. Ushbu iboraning ilk bor 1580 yilda rafiqasi uchun “*My deare, my better halfe (sayd hee) I find I must now leaue thee.*” kabi misralarda qo‘llagan shaxs Ser Filip Sidni hisoblanadi⁷⁷. Zamonaviy ingliz tilida ham bu birlikni turmush o‘rtoqqa nisbatan qo‘llash urfga kirgan. Jumladan, *Best to choose your journeys carefully before inviting your better half along for the ride.* (Times, Sunday Times 2010).


⁷⁶ <https://www.britannica.com/dictionary/better-half>

⁷⁷ <https://www.theidioms.com/better-half/>



“*Significant other*” evfemik birligi ko‘proq ingliz tilining og‘zaki nutqida qo‘llaniladi. U gender jihatdan neytral, ya’ni ham ayol, ham erkak kishi uchun qo‘llaniladi. Amerika Qo‘shma Shtatlarida ushbu evfemik birlik juftlikni to‘y, bazmlarga taklifni ifoda etishda qo‘llaniladi ⁷⁸. Masalan, *You may be accompanied for your appointment by a **significant other*** (https://en.wikipedia.org/wiki/Significant_other)

Buyuk Britaniyada “*significant other*” evfemistik birligi, asosan, shifoxonalarning yozishmalarida qo‘llaniladi. Birgina “*better half*” yoki “*significant other*” evfemalarining ma’nosiga e’tibor qaratilsa, birinchi evfemik birlikda turmush o‘rtoqqa bo‘lgan hurmat-izzatning ifodasi, “*signifant other*” birligida esa juftining o‘zidan-da muhimroq ekanligi, uning qadrlanishini ifoda etilganini kuzatish mumkin. Jumladan, *For undecided couples, the decision to tie the knot with a **significant other** could have economic ramifications as well as personal ones.* (Tristan Bove, *Fortune*, 17.08. 2022)



Bundan tashqari, yuqoridagi evfemizmlarning *life partner*, *soulmate*, *spouse* kabi shakllari ham nutqda qo‘llaniladi. Buyuk Britaniya xalqining *queen consort* (koroleva-konsort), ya’ni *hukmdor qirolning rafiqasi* evfemik birligi faqatgina qirollik oilasini ta’riflaganda, qirolchaga nisbatan ishlatiladi. Jumladan, *Her Majesty **The Queen Consort** (formerly HRH The Duchess of Cornwall) supports her husband, formerly The Prince of Wales, now His Majesty The King, in carrying out his work and duties. She also undertakes*

⁷⁸ https://en.wikipedia.org/wiki/Significant_other
www.bestpublication.uz

public engagements on behalf of the charities that she supports. (<https://www.royal.uk/queen-consort>).

O‘zbek xalqi ham azal-azaldan oilaviy munosabatlarni qadrlab keladi. Shu o‘rinda, oilaviy qadriyatlar avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan e‘tiqodlar, tamoyillar, urf-odatlar, hurmatli munosabatlar va mehr-oqibat to‘plami evfemizmlar orqali ifodalanishi oila a‘zolarining hamjihatligini, ishonchini va sevgisini mustahkamlaydigan muayyan axloqiy tamoyillarga rioya qilishga undaydi. Milliylikni ramzi sifati kelin-kuyov nikohdan so‘ng bir-birlarini nomlarini aytish tabulashtirilgan hodisa hisoblanadi. Ular o‘zaro nomlarini to‘ng‘ich farzandining nomi orqali ifoda etishgan. Bundan tashqari, o‘zbek tilida jufti halolini birovlar oldida to‘g‘ridan – to‘g‘ri *erim* yoki *xotinim* so‘zlari bilan atash tarbiyasizlik, uyat ma‘nosini anglatib, millatimizda ularning o‘rnida qo‘llaniluvchi milliy-madaniy yumshoq ekvivalentlardan foydalanish talab etiladi. Masalan, *erga* nisbatan *begim*, *xo‘jayin*, *boy*, *to‘ra*, *turmush o‘rtoq*, *umr yo‘ldosh*, *pochchang*, *uyning kattasi*, *oila kattasi* kabi qo‘llanilsa, *ayollar uchun*, *rafiqa*, *begoyim*, *onasi*, *keliniz*, *uyimning farishtasi*, *uyimning bekasi* kabi evfemizmlar bilan ifodalash mumkin bo‘ladi. Jumladan, o‘zbek mentalitetida erkak kishi oilaning boshlig‘i, posboni, boquvchisi kabi ramzlarni ifoda etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Исматуллаев Н. Хозирги ўзбек тилида эвфемизмлар. – ТошДПИнинг “Илмий асарлари”, 42-т., 1-китоб. 1963. – Б.3-59.
2. Исматуллаев И. Эвфемизмларнинг луғат составини ва сўз маъноларини бойитишдаги ахамияти, ТошДПИнинг “Илмий асарлар”и, 2-китоб, 1964, – Б.3-12.
3. Лауде-Циртаутас И. О табу и эвфемизмах в казахском, киргизском и узбекском языках. –Баку.: 1976, №4. – Б.79.
4. Лихачёв Д.С Концептосфера русского языка // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста: Антология. –М.: Academia, 1997. –С. 280-287
5. Мейе А. Основные особенности германской группы языков, 1952. 2-е изд.: URSS, 2003, –166 с.
6. Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. –Т.: Ўқитувчи, 1966. – 268 б.
7. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. –Т.: Фан. 1975. – Б. 68-75.
- 8.
9. Омонтурдиев А. Ўзбек тилининг қисқача эвфемик луғати. 2006. – Б. 43.
10. Севортян Э. В. Этимологический словарь тюркских языков. I - V томлар. – М.: 1974-1989. –С.132.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А.Мадвалиев тахрири остида.www.ziyouz.com кутубхонаси
12. <https://www.english-corpora.org>
13. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/boyish> (02.05.2023)